IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026

«NUR BORKI, SOYA BOR» ROMANIDA FRAZEOLOGIZMLARNING PRAGMALINGVISTIK TAHLILI

Tozaboyeva Sojida Jo‘rabek qizi
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq
davlat universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning “Nur borki, soya bor” asaridagi badiiy tasvir yaratish uchun qo‘llanilgan xalqona birliklar, ya’ni barqaror birikmalar hamda ular ichidagi iboralar tahlil qilinadi. Bu asarda uchraydigan frazeologik birliklar.
Kalit so‘zlar: Frazema, barqaror birikma, iboralar, frazeologizm, maqol, “Nur borki, soya bor”, lingvistik tahlil, frazeologik birlik, badiiy matn tahlili.

Annotation: This article analyzes the folk units, that is, stable expressions used to create artistic imagery in Otkir Hoshimov's work “Nur borki, soya bor”as well as the phrases within them. The phraseological units found in this work.
Keywords: Phrase, stable, combinations, paremiology, expressions, phraseologism, “Nur borki, soya bor”, linguistic analysis, phraseological unit, artistic text analysis.

Аннотация: В данной статье анализируются народные единицы, то есть устойчивые выражения, а также фразеологизмы, используемые для создания художественного образа в произведении Уткира Хошимова “Nur borki, soya bor”. В этом произведении встречаются фразеологические единицы.
Ключевые слова: фразема, устойчивые выражения, выражение, фразеологизм, пословица, “Nur borki, soya bor”, лингвистический анализ, фразеологическая единица, анализ фразеологической единицы, анализ художественного текста.

Tilshunoslikda frazeologizm (yunoncha "phrasis", frazeologik frazema) ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma’naviy jihatdan o‘zaro bog‘liq so‘z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan va bo‘linmaydigan, barqaror turg‘un bog‘lanmalarning umumiy nomi ibora, logos ta’limot bir nechta mustaqil leksemalarning birikuvidan tashkil topgan, obrazli ma’no kasb etuvchi lisoniy birliklarni o‘rganadigan tilshunoslik sohasi hisoblanadi [4. 45]. Bunday birliklar frazeologizm deb yuritiladi.

Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog‘i sifatida 20-asrning 40 yillarida rus tilshunosligida paydo bo‘lgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A A. Potebnya, I I. Sreznevskiy, A A. Shaxmatov asarlarida asos solingan bo‘lsa, barqaror so‘z birikmalarini alohida tilshunoslik bo‘limi – frazeologiyada o‘rganish masalasi 20-40-yillardagi o‘quv-metodik adabiyotlarda Ye D. Polivanov, S. Abakumov, L A. Bulaxovskiy asarlarida to‘liq talqin qilinmagan.

Frazeologiya bo‘yicha bir necha lug‘atlar tuzilgan, yozuvchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Oydin, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq

etilgan. Frazeologizmlar ayniqsa Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova, I. Qo‘chqortoyev, A. Rafiyev kabi olimlar ishlarida keng o‘rganilgan [3. 78].

Hozirgi o‘zbek tilshunosligida badiiy matn tahlili, xususan, yozuvchi uslubiga xos bo‘lgan frazeologik birliklarning tadqiqi dolzarb masalalardan biri sanaladi. Barqaror birikmalar tilning obrazliligi va emotsionalligini oshiruvchi tayyor lisoniy birliklar sifatida adibning individual stilini belgilab beradi.

Ushbu maqolada romandagi barqaror birikmalarning leksik-semantik, strukturaviy va lingvistik xususiyatlari tahlilga tortiladi.

Inson hayoti va jamiyatdagi ziddiyatlarni "Nur borki, soya bor" falsafiy konsepsiyasi orqali ochib bergan muallif, asar tili orqali mohirona fikr bildiradi. Roman tilini tadqiq etar ekanmiz, undagi barqaror birikmalar tizimi yozuvchining xalq nutqidan qanchalik unumli foydalanganini ko‘rsatadi.

O‘tkir Hoshimovning "Nur borki, soya bor" romanida uchraydigan iboralar, maqol va matallar asar ruhini milliy bo‘yoqlar bilan boyitgan [3. 32].

"Nur borki, soya bor" falsafiy konsepsiyasi orqali ochib bergan muallif, asar tili orqali mohirona fikr bildiradi.

Roman tilini tadqiq etar ekanmiz, undagi barqaror birikmalar tizimi yozuvchining xalq nutqidan qanchalik unumli foydalanganini ko‘rsatadi. "Nur borki, soya bor" romani frazeologizmlarga boyligi bilan o‘zbek tili lug‘at boyligining amaliy namoyishidir [3. 56].

Mazkur maqolada asardagi iboralarning qo‘llanish doirasi, chastotasi va ularning asar g‘oyasini ochishdagi lisoniy xizmati ko‘rib chiqiladi. "Nur borki, soya bor" romanidagi iboralar nafaqat til birliklari, balki badiiy-estetik hodisa sifatida ham o‘rganishga arziydi.

Quyida ushbu romanda qatnashgan iboralar tahlili haqida fikr yuritamiz.

Shu gapni eslab miyig‘ida kulib qo‘ydi. (Nur borki, soya bor 7-bet)

Miyig‘ida kulmoq – romanda qo‘llanilgan ushbu ibora o‘zbek adabiy tilida oshkora emas, balki lab uchida, bazo‘r yoki bildirmay yashirincha tabassum qilmoq, istehzo bilan jilmaymoq ma’nolarini bildiradi. Ushbu ibora gapda grammatik jihatdan kesim vazifasida qo‘llanilgan.

U o‘zi ishlaydigan redaksiyaga kirib ko‘ngilsiz fikrlardan boshi shishib ketdi. (Nur borki, soya bor 9-bet)

Boshi shishib ketmoq – ushbu ibora o‘zbek tilida ko‘p o‘ylash, tashvish, shovqin-suron yoki muammolar sababli miyasi charchamoq, boshi og‘rib ketmoq yoki g‘udaymoq ma’nosida ham kelishi mumkin. Varianti: kallasi shishdi (4. 101). Asarda keltirilgan mana shu ibora gap tarkibida grammatik ma’no jihatdan bosh bo‘lak (kesim) bo‘lib kelgan.

- Endi nima bo‘ladi? – deb so‘radi qovog‘ini solib. (Nur borki, soya bor 9-bet)

Qovog‘ini solmoq – romanda keltirilgan ushbu ibora o‘zbek adabiy tilida xafa qilmoq, kayfiyati buzilmoq, qosh-qovoqni uyib olmoq degan ma’noni bildiradi. (4. 418) Quyidagi gapda qo‘llangan shu ibora leksik jihatdan ikkinchi darajali bo‘lak (aniqlovchi) bazifasida kelgan.

Mudir bir muddat xijolat chekkandek bo‘lib qaradi. (Nur borki, soya bor 13-bet)

Xijolat chekmoq – asar tarkibida uchraydigan mana shu ibora uyalmoq, noqulay ahvolga tushmoq degan ma’nolarni bildiradi. Varianti: xijolat tortmoq (4. 537). Romanda keltirilgan ushbu ibora gap tarkibida aniqlovchi bo‘lib kelgan.

Sherzod darrov ko‘zini olib qochdi. (Nur borki, soya bor 17-bet)

Ko‘zini olib qochmoq – asarda qo‘llanadigan ushbu ibora o‘zbek tilida nazarni boshqa kishining nazari bilan uchratmaslikka harakat qilish ma’nosini anglatadi(4 269). Ushbu ibora gap tarkibida kesim vazifasini bajargan.

Sayfi Soqiyevich do‘mboq qo‘lini siltadi. (Nur borki, soya bor 18-bet)

Qo‘l siltamoq – ushbu ibora zamonaviy o‘zbek tilida diqqat-e'tiborga noloyiq deb topmoq Varianti: qo‘lni siltamoq, qo‘lini siltamoq degan leksik ma’nolarni anglatadi. (4. 431). Asarda keltirilgan ushbu ibora grammatik jihatdan bosh bo‘lak(kesim) bo‘lgan.

... sevgidek tabarruk hisni oyoqosti qilayotgan odamlar. (Nur borki, soya bor 19-bet)

Oyoqosti qilmoq – asarda keltirilgan ushbu ibora o‘zbek tilida paymol bo‘ldi, tahqirlandi. Varianti: oyoq osti qilinmoq, oyoq osti qildirmoq degan ma’nolarni ifodalaydi (3 360). Ushbu ibora gapda aniqlovchi vazifasida kelgan.

..nafasi sezilib turgan ko‘klam hidlari quloqqa chalindi. (Nur borki, soya bor 21-bet)

Quloqqa chalinmoq – romanda keltirilgan ibora o‘zbek tilida bilmasdan yoki tasodifan eshitib qolmoq, biror xabar, gap-so‘z yoki tovushning quloqqa tushishi, eshitilishi ma’nosini bildiradi (4. 636). Asar tarkibida qo‘llangan mana shu ibora kesim bo‘lib qatnashga.

...egri-bugri chiziqlarni diqqat bilan ko‘zdan kechira boshladi. (Nur borki, soya bor 23-bet)

Ko‘zdan kechirmoq – asar tarkibida qo‘llanilgan ushbu ibora hozirgi o‘zbek tilida qarab chiqmoq, birma-bir ko‘rmoq, sinchiklab tanishmoq. Varianti: ko‘zdan kechirilmoq, ko‘zdan o‘tkazmoq, nazaridan o‘tkazmoq degan ma’nolarni ifodalaydi (4. 272).

Yuqoridagi ibora grammatik jihatdan gapda bosh bo‘lak (kesim) holida uchraydi.

Sirojiddinning g‘ashiga tegdi. (Nur borki, soya bor 59-bet) G‘ashiga tegmoq – ushbu ibora o‘zbek tilida asabini qo‘zg‘atmoq. Varianti: g‘ashga tegmoq degan leksik ma’nolarni anglatadi (4. 631). Romanda keltirilgan mana shu ibora gap tarkibida kesim vazifasida kelgan.

"Kimga orqa qilyapti bu surbet" – dedi. (Nur borki, soya bor 59-bet)

Orqa qilmoq – asarda qo‘llanilgan mana shu ibora o‘zbek tilida kimgadir hurmatsizlik qilish ma’nosini bildiradi (4. 350). Ushbu ibora grammatik jihatdan bosh bo‘lak (kesim) bo‘lib qatnashgan.

….turnalar karvoniga ko‘zi tushganda bola bilan. (Nur borki, soya bor 67-bet)

Ko‘zi tushmoq – asarda keltirilgan ushbu ibora hozirgi o‘zbek tilida ko‘z qarashlari bir daqiqa duch keldi. Varianti: ko‘z- ko‘zga tushdi ma’nolarini ifodalaydi (4 260). Ushbu ibora gap tarkibida hol vazifasida kelgan.

Farida boshini ko‘tardi-da, qayrilma qoshlarini chimirib. (Nur borki, soya bor 72-bet)

Qoshini chimirmoq – asar tarkibidagi ushbu ibora o‘zbek adabiy tilida qovog‘ini solmoq kabi ma’nolarni anglatadi (4. 420). Gapda qo‘llangan quyidagi ibora hol bo‘lib kelgan.

. ….o‘yladi Sherzod yuragi bezillab. (Nur borki, soya bor 93-bet)

Yuragi bezillaydi – hozirgi zamonaviy o‘zbek tilida ushbu ibora zada bo‘lish, hadiksirash ma’nolarini anglatadi (4. 563). Grammatik jihatdan ushbu ibora ikkinchi darajali bo‘lak(hol) vazifasida kelgan.

Rais buva kolxozni oyoqqa turg‘izdilar. (Nur borki, soya bor 206-bet)

Oyoqqa turmoq – romanda keltirilgan ushbu ibora o‘zbek tilida o‘nglanish, yashashga qodir darajaga yetish(4. 362). Quyidagi ibora gapda bosh bo‘lak(kesim) bo‘lib qatnshgan.

Sherzod birdan yengil tortdi. (Nur borki, soya bor 110-bet)

Yengil tortmoq – asar tarkibida uchraydigan ushbu ibora o‘zbek tilida xotirjam bo‘lmoq kabi ma’noni ifodalaydi(4. 440). Mana shu ibora gap tarkibida kesim vazifasini bajargan.

Xulosa qilib aytganda, asardagi frazeologizmlar shunchaki til bezagi bo‘lib qolmay, matnning badiiy estetik salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilgan. O‘tkir Hoshimovning frazeologik birliklarni tanlash va qo‘llashdagi yuksak mahorati qahramonlar ruhiyatidagi nozik o‘zgarishlarni, ularning kechinmalari va muhit xususiyatlarini teran ochib berish imkonini yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘tkir Hoshimov "Nur soya bor". Toshkent, 2024.
2. O‘zbek tilining tilining izohli lug‘ati. Toshkent, 2020.
3. O‘zbek frazeologik lug‘ati. Toshkent, 2023.
4. Shomaqsudov Sh , Shorahmedov Sh. "Ma’nolar maxzani". Toshkent, 2001